

## Leksik tanlash va poetik sintaksis

Sh. Usmonov

Qarshi davlat universiteti

Yangi o'zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrası  
mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Maqolada badiiy asarga tasviriylik berish maqsadida poetik nutq figuralari deb yuritiluvchi poetik sintaksis vositalarida keng foydalaniladi. Antik ritorikadan boshlab sintaktik figuralar deb atalayotga ritorik so'roq, ellipsis, gradatsiya, band, anaphora, epifora, takror, antiteza kabilar badiiy poetik sintaksis birliklari hisoblanadi. O'zbek tili badiiy poetik sintaksisi elementlari haqida fikr yuritilganda inversiya alohida o'ringa ega.

**Kalit so'zlar:** emotsional - ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan birliklar, inversiya, nasriy matnda aktual bo'linish, kontakt va distant so'z tartibi.

**Аннотация:** В статье с целью придания наглядности художественному произведению широко используются средства поэтического синтаксиса, называемые поэтическими фигурами речи. От античной риторики до так называемых синтаксических фигур риторический вопрос, многоточие, градация, предложение, анафора, эпифора, повтор, антитеза являются единицами художественного поэтического синтаксиса. Инверсия занимает особое место при рассмотрении элементов художественно-поэтического синтаксиса узбекского языка.


**Ключевые слова:** единицы с эмоционально-экспрессивной окраской, инверсия, тематическое членение в прозаическом тексте, контактный и дальний порядок слов.

**Annotation:** In the article, poetic syntax tools called poetic figures of speech are widely used in order to give visibility to an artistic work. From ancient rhetoric to what are called syntactic figures, rhetorical question, ellipsis, gradation, clause, anaphora, epiphora, repetition, antithesis are units of artistic poetic syntax. Inversion has a special place when thinking about the elements of artistic poetic syntax of the Uzbek language.

**Key words:** emotional-expressive units, inversion, actual division in prose text, contact and distant word order.

Badiiy asar tilining fonetik, leksik va uslubiy o'ziga xosligini tadqiq etish o'sha shoir ijodiy laboratoriyasi, fenomeni, u yashagan davrdagi gap bo'laklarining qurilishi, gapning tuzilishiga ko'ra turlari, uslubiy vositalar, ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlarning tilga ta'siri kabilarni o'rganish imkonini beradi. Bu masala milliy adabiyotshunoslikda ancha chuqur o'rganilgan va bu jarayon hali davom etmoqda.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Абдуназаров А. 20- йиллардаги ўзбек адабий тили лексикаси ва фразеологияси тараққиёти: филол. фанлари номзод.дисс.— Т.: 1969; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати ("Кеча ва кундуз" романининг тили мисолида): филол.фанлари номзоди...дисс.— .: 2000; Қуроноф Д. Чўлпон поэтикаси (насрий асарлари асосида): филол.фанлари доктори... дисс. — Т.:1998; Қурбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси: филол.фанлари номзод... дисс.—Т.: 1993; Бобожонов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари мисолида): филол.фанлари номзоди...дисс.— Самарқанд: 2002; Ёқубов С. Фитрат бадий асарлари лексикаси: филол.фанлари номзоди... дисс.— Т.: 2001; Абдуназаров А. 20- йиллардаги ўзбек адабий тили лексикаси ва фразеологияси тараққиёти: филол.фанлари номзоди...дисс.—Т.: 1969.



Badiiy uslub bu badiiy asarning tilidir. Badiiy asarlarning tili ham turlar nuqtayi nazaridan farqlanadi. Epik turda yaratilgan badiiy asarlarda barcha uslublarga xos jihatlari mujassam bo'ladi. U barcha uslublarga xos xususiyatlarni o'zida qamrab oladi. Lirik tili birmuncha farq qiladi. Epik turda yozilgan asarlarning sintaktik qurilishi bilan, lirik asarlarning sintaktik yuzaga chiqishi keskin farq qiladi. Epik asarlarda odatda gaplar odatdagi tartibda, tasvirlar doirasida murakkab ko'rinishli gaplarda, ravish oborotlaridan juda ko'p foydalaniladi. Epik turda so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi, emotsional-ekspressiv xususiyatlari ustunlik qilsa-da, bu holat asarning poetik sintaksisida o'ziga xoslikni tashkil etmaydi.

Lirik turda quyidagicha leksik birliklar tanlanadi:

- 1) ta'sir doirasi yuqori, emotsional - ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan birliklar;
- 2) o'zida turli ko'chmalarni tashish olish belgisiga ega bo'lgan birliklar;
- 3) ijodkorning o'zi tomonidan shaxsiy qo'llanma ijod so'zlari;
- 4) lirik turning tabiatidan kelib chiqib, chegaralangan so'zlar, arxaizm, istorizm va boshqa birliklar.

Lirik asarlarda, avvalo, gap bo'laklarining o'zgargan tartibi muhim rol o'ynaydi. Ijodkor badiiy maqsadining asl mohiyatini ifodalovchi so'zlarni oldi qo'llaydi. Odatdagi tartibda ega va uning aniqlovchilari oldi, kesim va uning izohlovchilari bo'lgan to'ldiruvchi va hol undan oldi qo'llanadi. Odatdagi tartibda payt holi egadan oldin kelishi kuzatilishi mumkin. She'riy asarlarda ham odatdagi tartibning qo'llanilishiga guvoh bo'lish mumkin, birgina gap ikki misrada taqsimlanish holatlari ko'p kuzatiladi. Shoir Nodira Ofoqning "Javzoda yozilgan she'r" she'rida shunday holatni kuzatamiz:

Soktareda ne gaplar, ona,

Jazavasi qanday javzoning?

Bunda hol, aniqlovchi, ot-kesim shaklida qo'llangan, gap oxirida undalmaning keltirilishi asosiy diqqatni undalmaga emas, fikr tashiyotgan bo'laklarga qaratgan. Ikkinchi misrada ega oldin, uning aniqlovchilari esa so'ng keltirilgan. "Jazava" so'zining oldinda keltirilishi ijodkorning badiiy maqsadini yetkazish uchun xizmat qilgan.

Jannatlarga do'ngandir yana

Eng chekkasi katta dunyoning?

Alohida ma'no tashuvchi so'zlarning dastlabki o'rinlarda keltirilishi lirik psixologizmning ifoda yo'sinini yanada aniqroq belgilab beradi.

She'riy asarlarning so'z tartibi qofiya tizimini belgilash uchun ham xizmat qiladi. Ritm, ohangdorlikning yuzaga chiqishida so'z tartibining o'rnini beqiyos.

O'ttiz ikkidami yo ikkidaman-


Varraklar uchirgim kelyapti nega?

Vujudim buncha hur, buncha yengilman,

Qancha bo'ldi zilday g'ul singaniga?

Dastlabki misra faqat kesimdan iborat, keying misrada sabab holi kesimdan keyin keltirilgan, uchinchi misrada gap bo'laklarining odatdagi tartibi, keying misrada esa sabab holining kesimdan keyin keltirilishiga guvoh bo'lish mumkin. Qofiyalar tizimini hosil qilishda ham so'z tartibining o'zgarganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek tilshunosligida so'z tartibi tadqiqiga ko'ra dastlabki ish T.Yadixanovning 1954-yil Moskvada himoya qilingan dissertatsiyasidir. Ishda dastlab "Turkiy tilarda so'z tartibi" masalasi yoritilib, unda M.A.Kazimbek, O.Byotning, P.Melioranskiy, S.Lange, N.I.Ashmarin kabi tilshunoslarning qarashlariga munosabat bildirilgan va ularning ishlarida qaysi yo'nalish ustuvor



ekanligi ko'rsatib berilgan.

I.K.Mirzayevning doktorlik dissertatsiyasida she'riyatda so'z tartibi masalasi o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib, lingvopoetik nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Tadqiqotchi she'riyatda so'z tartibini ikki davrga: gapning aktual bo'linishi masalasining kun tartibiga olib chiqilguncha va undan keyingi davrga bo'lib o'rganan, N.A.Baskakovning tadqiqotlarida so'zlarning sintaktik funksiyalari ma'lum morfologik ko'rsatkichlar bilan ifodalanmaganda, so'z tartibi sintaktik munosabatlarni ko'rsatuvchi asosiy vosita rolini o'ynaydi.

Shuningdek, she'riyatda so'z tartibi formal Grammatik aloqa vositasidan ko'chma va turlanuvchan, so'z va so'z birikmalari, gap ma'no-mohiyatini oydinlashtiradigan, ularga semantik va uslubiy nozikliklar bag'ishlaydigan usul maqomiga ko'tarildi. Nutqning aniq maqsadiga mos ravishda sintaktik birliklarni tanlash doimo eng qulay variantlarni izlash bilan bog'liq. Bunda eng qulay variant zaruriy mazmunni va emotsional jarangdorlik talablarini qanoatlantirishi talab etiladi. Nutqda so'zlarning qanday tartibda bo'lishi gapning aktual bo'linishi masalasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Gapning aktual bo'linishi ta'limotining lingvistikaga kiritilishi turkiy tillarda so'z tartibi muammosini hal qilishda mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi. I.I. Kovtunovanning ta'kidlashicha, gapda lingvistik muammo sifatidagi so'z tartibi masalasi uning bosh omili bo'lgan aktual bo'linish masalasini o'rganmasdan turib, muammoni to'g'ri hal qilib bo'lmaydi.

So'z tartibi so'zlovchining xohish-irodasi, maqsadi, uslub talablariga mos ravishda joylashadi. Aktual bo'linish talabi bilan gapda so'z tartibi har xil bo'ladi. Poeziyada aktual bo'linish butun she'r tuzilishini o'ziga bo'ysundirgan vazn, ritm, qofiya va so'z tartibiga qaraganda ikkinchi darajali ekanligi bilan izohlanadi, -deb ta'kidlaydi I.Mirzayev.

Ko'rinadiki, she'riy va nasriy matnda aktual bo'linish masalasi bahsli. Nasriy matnda aktual bo'linish birlamchi masala bo'lsa, poeziyada qofiya, vazn va so'z tartibidan keyin turadi.

She'riy nutqda so'z tartibining vazn yasovchi vazifasi birinchi o'ringa chiqqanda, uning aktual bo'linishini ifodalovchi vazifasi keskin susayadi yohud deyarli yo'q bo'lish ehtimoli bor, ya'ni gap bo'laklarining o'zaro joylashishi erkin tus kasb etadi, shuningdek, so'z tartibining nasrga xos me'yorlari so'z birikmasi doirasida barham topadi.


She'riyatda so'z tartibi fikr ifodasining eng muhim unsurlaridan sanaladi hamda stilistik nuqtayi nazardan gapga qo'shimcha mazmun berish, gap bo'lagi ma'nosini kuchaytirish yoki susaytirish vazifasini ham bajaradi. Sintaksisda gap bo'laklari odatdagi va o'zgargan, kontakt va distant so'z tartiblaridan biriga rioya qiladi.

O'zgargan tartib-inversiya hisoblanib, u ba'zan nutqiy talabga ko'ra oddiy so'zlashuvda, asosan, she'riy matnlarda namoyon bo'ladi. Gap bo'laklarining o'zgargan tartibi son-sanoqsiz grammatik kombinatsiyalarni hosil qiladi.

V.G.Admoni so'z tartibing quyidagi tartiblarini ko'rsatadi:

- 1) kontakt va distant so'z tartibi;
- 2) prepozitiv va postpozitiv so'z tartibi;
- 3) qat'iy so'z tartibi va noqat'iy so'z tartibi;
- 4) me'yoriy va o'zgartirilgan so'z tartibi.

I.Mirzayev o'z tadqiqotlarida inversiyani yuzaga keltiradigan omillar va uning namoyon bo'lish shakllarini o'rganar ekan, so'z tartibi turlarini **atributiv**, relyativ va obyektiga ajratib, atributiv so'z birikmalarida kontakt, ya'ni yonma-yo tartibga moyillik kuchli ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ega va kesim har qanday ketma-ketlikda to'g'ri va teskari, kontakt va distant tartibda kelishi mumkin. Hozirgi o'zbek poeziyasida eganing kesimdan oldin kelishi yetakchi hisoblanadi.



Kesim prepozitsiyasi, odatda, ritm hamda qofiya maqsadlari tufayli yuzaga keladi va kam uchraydi.

Badiiy asarga tasviriylilik berish maqsadida poetik nutq figuralari deb yuritiluvchi poetik sintaksis vositalarida keng foydalaniladi. Antik ritorikadan boshlab sintaktik figuralar deb atalayotga ritorik soʻroq, ellipsis, gradatsiya, band, anaphora, epifora, takror, antiteza kabilar badiiy poetik sintaksis birliklari hisoblanadi. Oʻzbek tili badiiy poetik sintaksisi elementlari haqida fikr yuritilganda inversiya alohida oʻringa ega. Inversiya formal nuqtayi nazardan toʻgʻri, buning nasrga xosligi bizga maʼlum. Inversiyaning gapdagi asosiy vazifasi badiiy matnda, ayniqsa, sheʼriy asarlarda muallif uslubiy maqsadining amalga oshirishini taʼminlash, gap tarkibidagi biror boʻlakni alohida ajratib, taʼkidlab koʻrsatish orqali asosiy fikrning oʻquvchi tomonidan tez va oson tushunilishiga erishishdan iboratdir.

Ozmi-koʻpmi kezdim dunyoni,

Ozor chekdi goho bu koʻngil.

Bir xasta qalb ekan topgani,

Kimki boʻlsa ezgulikka qul.

Ushbu Nodira Ofoq qalamiga mansub sheʼrning birinchi misrasida toʻldiruvchi kesimdan keyin kelgan, hol oldin keltirilgan boʻlsa-da, u vergul bilan ajratilgan, ajratilgan boʻlakka alohida eʼtibor qaratilgan. Ikkinchi misrada hol va ega kesimdan keyin keltirilgan, bu bilan kesimga urgʻu qaratilgan. Uchinchi misrada ega yana kesimdan oldin keltirilgan. Oxirgi misrada qoʻshma soʻzning tarkibi oʻzgartirilgan holatda berilgan. Ushbu misrani odatdagi tartibga aylantirsak, quyidagicha koʻrinish hosil boʻladi: "Dunyoni ozmi-koʻpmi kezdim, Goho bu koʻngil ozor chekdi, Kimki ezgulikka qul boʻlsa, topgani bir xasta qalb ekan".

Zebo Mirzoning "Onamga" sheʼriga diqqat qarataylik.

Oq sochlari oppoq tun uning,

Umri halol ishqa bayroqdir.

Oh, yuzlari dunyoyi dunning

Goʻzalidan chiqoyliroqdir.

(Boʻlolmadim hasasichalik)

Otam dardin koʻtargan mohim,

Ushoqqina onam koʻngliga

Bir hovuch nur bergil, ilohim!


Dastlabki misrada aniqlovchining aniqlanishidan keyin kelishi kuzatiladi, ikkinchi misrada odatdagi tartib berilgan, uchinchi va toʻrtinchi misra yagona bitta gapdan iborat, bunda ham odatdagi tartib mavjud. Keyingi misrada kesimdan tartibi oʻzgargan, navbatdagi misra bilan yagona gap hisoblanadi. Keyingi misralar ham odatdagi tartib hisoblanadi. Odatdagi tartibga keltirilsa, quyidagicha koʻrinish oladi: "Uning oq sochlari oppoq tundur, Umri halol ishqa bayroqdir, yuzlari dunyoyi dunning goʻzalidan chiroyliroqdir, Otam dardini koʻtargan mohimning hasasichalik boʻlolmadim. Ilohim onamning ushshoqqina koʻngliga bir hovuch nur bergil".

Har qanday lingvistik hodisa kabi soʻz tartibining birlamchi va ikkilamchi vazifalarini farqlash lozim, chunki soʻz tartibi turlarining ifoda imkoniyatlari oʻrganar ekanmiz, bajaradigan vazifasi nuqtayi nazaridan ham ularni darajalab olish zarurati yuzaga keladi. Dastlab O.B.Sirotinina fikrlariga diqqat qiladigan boʻlsak, u yozma nutqdagi soʻz tartibining uch vazifasini ajratib koʻrsatadi:

1) kommunikativ-til birligining aloqa-munosabat jarayonidagi ahamiyatini belgilab olish;

2) stilistik- uslubiy boʻyoqdorlikni taʼminlash;

3) grammatik-soʻz birikmalarining hosil boʻlishi hamda yaxlit saqlanishiga erishishdan iboratdir.



Bizningcha, nasriy nutqdan farqli o'laroq, she'riyatda so'z tartibining birlamchi vazifasi grammatik vazifadir, ya'ni gap bo'laklarini hosil qilish; ikkilamchi vazifasi esa kommunikativ vazifa sanalib, ozaro aloqa-aralashuv munosabatini belgilab olish; keyingi vazifasi esa uslubiy bo'yoqdorlik va ta'sirchanlikni yuzaga keltirish, vazn, qofiya va badiiy san'atlarni yuzaga keltirish kabilardan iboratdir.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmonov A. O'zbek she'riyatida nur, rang va ruxiyat tasviri poetikasi (an'ana va novatorlik asosida): Filol. fan...fals.dokt... avtoref. - FarFOna, 2018. - 53 b.
2. Afoqova N. So'z ayvoni. – T.:«Fan», 2006
3. Afoqova N. Ko'ngil shevasi. – T.:«Fan», 2006
4. Mirzo Z. Nur kukunlari. –Toshkent:, Yangi asr avlodi. 2004.
5. Afoqova N. Vatan darslari. – T.: “Fan”, 2013.